



UO'K-373.3;37.013

Marjan JANBAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: janbaeva.m@cspi.uz

PhD O'.Farmonov taqrizi asosida

THEORETICAL PRINCIPLES OF FORMING THE PROFESSIONAL MOBILITY OF FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS

Annotation

Although the processes of transformation of educational paradigms in the world, on the one hand, have common trends, on the other hand, they are characterized by the principles of specificity. Any changes in public life also lead to certain changes in the primary education system. The globalization of education and professional mobility around the world poses the problem of ensuring the movement of citizens in accordance with the new era.

Key words: Professional mobility, professional activity, activity, competence, mobility, development, self-development, professional mobility of the teacher.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Хотя процессы трансформации образовательных парадигм в мире, с одной стороны, имеют общие тенденции, с другой стороны, они характеризуются принципами специфичности. Любые изменения в общественной жизни также приводят к определенным изменениям в системе начального образования. Глобализация образования и профессиональной мобильности во всем мире ставит проблему обеспечения передвижения граждан в соответствии с новой эпохой.

Ключевые слова: Профессиональная мобильность, профессиональная деятельность, активизм, компетентность, мобильность, развитие, саморазвитие, профессиональная мобильность преподавателя.

BO'LAJAK BOSHLAG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY MOBILIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Jahonda kechayotgan ta'lim paradigmalarining o'zgarish jarayonlari bir tomondan umumiy tendensiyalarga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan u xususiylik tamoyillari bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy hayotdagi har qanday o'zgarishlar boshlag'ich ta'lim tizimida ham muayyan o'zgarishlarga olib keladi. Dunyo bo'ylab ta'lim va kasbiy mobillikning globallashuvi fuqarolarning yangi davrga mos harakatini ta'minlash muammosini keltirib chiqarmoqda. Kasbiy professionallikning o'zgargan zamonga xos xususiyatlaridan biri uning mobilligi bo'lib, bu o'z navbatida, har qanday shaxsning ichki, shaxsiy-psixologik va tashqi amaliy faoliyatidagi o'zgarishlarga moslashish zaruriyatini dolzarb qilib qo'yadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy mobillik, kasbiy faoliyat, faoliyat, kompetensiya, harakatchanlik, rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'qituvchining kasbiy harakatchanligi.

Kirish. XX asr oxiri-XXI asr boshlarida jamiyat hayotining barcha sohalarini: iqtisodiyot, ishlab chiqarishni, ijtimoiy aloqalarni va ularning dinamikasini, siyosiy o'zaro ta'sir usullarini, qadriyatlarini o'zgartirgan chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Zamonaviy jamiyat dinamik ravishda o'zgarib, har bir inson oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda. Doimiy yangilanib turadigan ma'lumotlar jamiyatning o'zgaruvchanligi esa insonlardan moslashuvchanlikni, yangi sharoitlarga tez moslashish qobiliyatini, faollikni, ya'ni harakatchanlikni talab qiladi.

"Harakatchanlik" tushunchasi (lotincha mobilis – harakatchanlik) tez harakat qilish, harakat qilish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Sotsiologiyada Pitirim Sorokin tomonidan birinchi marta chuqur nazariy jihatdan tushunilgan "ijtimoiy harakatchanlik" tushunchasi qo'llaniladi.

Ushbu atama ijtimoiy fanga 1927 yilda kiritilgan [1]. Muallif kasbiy harakatchanlikni "shaxs yoki ijtimoiy obyektning (qiymatning) har qanday o'tishi, ya'ni inson faoliyati tomonidan yaratilgan yoki o'zgartirilgan barcha narsalar" deb ta'riflagan. Keyinchalik, bu ta'rif u tomonidan o'zgartirilib "shaxsning ijtimoiy makon ichidagi harakatdagi

hodisasi" deb ta'riflagan [1]. Aynan shu harakatchanlik tushunchasi bugungi kunda ta'lim sohasida ham qo'llanilmoqda.

Pedagogik harakatchanlikning bir nechta turlari mavjud bo'lib ularning eng asosiysi vertikal va gorizontal harakatchanlikdir.

Gorizontal harakatchanlik "shaxs yoki o'qituvchining bir jamodagi bir darajadan boshqa darajaga o'tishi" deb tushuniladi [1]. Bu kasbi, oilaviy ahvoli va hokazolarning o'zgarishi bilan bog'liq o'zgarishlardir. Vertikal harakatchanlik deganda "shaxs yoki o'qituvchining bir ijtimoiy qatlamdan ikkinchisiga o'tganda paydo bo'ladigan munosabatlar tushuniladi. Vertikal harakatchanlik mehnat faoliyatining ko'tarilishi va tushish yo'nalishlarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'qituvchining kasbiy harakatchanligiga kelsak, tizimli yondashuv o'qituvchining kasbiy harakatchanligini rivojlantirish tizimining asosiy elementlarini aniqlash, tizimning tuzilishini aniqlash, tizimning individual darajalari va elementlarining funksiyalarini ajratib ko'rsatish, uning yaxlit ishlashini birligida ta'minlashni anglatadi.

Kompetensiyaviy yondashuv “o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi” va “o'qituvchining kasbiy harakatchanligi” tushunchalari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni o'rnatishni nazarda tutadi; rivojlanish uchun o'qituvchilar tayyorlash mazmunini talqin qilish uning kasbiy harakatchanligi, o'qituvchining kasbiy harakatchanligini baholash usullarini asoslash bilan belgilanadi. O'qituvchi shaxsining ijodkorligi bu uning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabatlarda, barqarorlikda, faollikda, qobiliyatlarida, mahoratlarida taraqqiy etadi va natijalarga erishishi bilan ajralib turadi.


“Kompetensiya” tushunchasi interaktiv bo'lib, quyidagilarni nazarda tutadi: shaxsning ilgari yashirin potentsial kompetensiyasi talab qilinishi va dolzarb bo'lishi mumkin bo'lgan haqiqiy aniq vaziyatning mavjudligi [2;3]. O'qituvchining umumiy tayyorligi mustaqil muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, o'quv jarayonida olingan bilim, ko'nikma, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarning hal qiluvchi rolini o'ynaydi. Biz kompetensiyani tushunish uchun uning mazmunini ochib beradigan psixologik va pedagogik asoslarni sintez qilsak kompetensiyaning mohiyati barchani safarbar qilishda ifodalangan tayyorlik orqali aniqlanadi.

Bo'lajak o'qituvshilarda shaxsiy-individual sifatlarini rivojlantirishda kompetensiya tushunchasi bilan bog'liq holda, sub'ektiv tushunsha sifatida qarash muhim hisoblanadi [4]. Demak, kompetensiya bo'lajak o'qituvshining individual

sifatlarini rivojlantirish muammosini ko'rib shiqishni maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Ma'lumki, kompetensiya tushunshasini bo'lajak o'qituvshi shaxsining sifatlariga qo'yiladigan, unga muayyan faoliyat sohasidagi hayotiy vazifalarni samarali eshishda imkon beradigan ob'ektiv talab sifatida qarash muhim hisoblandi. Bu borada respublikamizdagi olimlari ham o'z tadqiqot ishlarini olib borgan [5;6]. (1-rasm)

Tadqiqot metodologiyasi. Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda “kompetensiya” tushunshasi talqiniga olim Ms.Slelland[7] tomonidan XX asrning 70 yillarida o'z tadqiqotlarida foydalanilgan. Slelland o'zining “Testing for Somptense Rather Than Intelligense” maqolasida bo'lajak kadrlarning qobiliyatlari va sohaga oid bilimlari hamda tajriba sinovlari samarali ish natijalarini amaliy faoliyatga tadbiiq etish asnosida muvaffaqiyatga erishish masalalariga to'xtalib o'tgan. Slelland tadqiqot natijalarida ta'lim va ish samaradorligini bashorat qiladigan va irq, jins va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni o'z ishiga olmaydigan o'zgaruvshi “kompetensiya”larni aniqlaydigan ta'limi usullarni izlagan hamda tadqiq qilagan[8].

Pedagogik faoliyatga nisbatan “pedagogik harakatchanlik” tushunchasi adabiyotda insonning o'quv jarayonining boshqa subyektlari: talabalar, ota-onalar, hamkasblar, ma'muriyat, sheriklar, jamiyat vakillari bilan faoliyatni tashkil etish qobiliyati sifatida ham qo'llaniladi[9].



1-rasm. Respublikamiz olimlari talqinida kompetensiya va kompetentlik masalari

Mehnat bozoridagi mavjud vaziyat, o'qituvchi kompetentligi talablarning ortishi, kasbiy faoliyatni standartlashtirish va intensivlashtirish hodisalari o'qituvchining shaxsiy kasbiy harakatchanligi kabi shaxsiy sifatini shakllantirish zarurligiga olib keladi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining vertikal va gorizontal kasbiy harakatchanligini ajratib turadi. Birinchisi kareraning o'sishi bilan ko'proq bog'liq bo'lsa, ikkinchisi esa xodimning samarali ishlash qobiliyati sifatida tushuniladi ish muhitini o'zgartirish bilan bog'liq hisoblanadi.

Kasbiy harakatchanlikning jihatlaridan biri bu ish joyining o'zgarishi, faoliyat turlari yoki mehnat operatsiyalari tufayli xodimning ish holatining o'zgarishiga bog'liqdir. Mehnat funksiyalarining kengayishi va o'qituvchining kasbiy faoliyat turlarining tez o'zgarishi bo'yicha aniq zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqqan holda, kasbiy pozitsiyani ma'lum bir o'zgartirish muammosini aktuallashtiradi. Kasbiy bilimlar har doim insonni o'rab turgan makro va mikro sohalar ta'siri ostida amalga oshiriladi va bu sohalarida yuz beradigan o'zgarishlarga duch keladi. Kasbiy etikaga rioya qilish, individual ijtimoiy javobgarlik, ichki nazorat lokusi (o'z hayotidagi voqealarning sabablarini tashqi sharoitda emas, balki o'zida ko'rish istagi), mazmun yaratish, ichki dialogik, etarli darajada o'zini o'zi qadrlash va o'zini tabaqalashtirilgan baholashga tayyorlik kabi shaxsiy xususiyatlar.

Tahlil va natijalar. Kasbiy mobillik o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati orqali takomillashtiriladi va natijada o'qituvchining kasbiy harakatchanligini rivojlantirishga asos bo'ladi. O'qituvchining kasbiy faoliyatida o'z-o'zini anglash, o'zini aks ettirish va o'zini hurmat qilish muhim rol o'ynaydi. Pedagogika universitetining vazifasi o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va istakni shakllantirish usullari va vositalarini tanlash va bo'lajak boshlang'ich ta'lim

o'qituvchisini ular bilan metodik qurollantirishdan iborat. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar bunday qobiliyatga ega emaslar.

Birinchidan, talabalar kasbiy harakatchanlik haqida aniq tushunchaga ega emasligi: fanlarning 70% bu tushunchani shakllantirishga qaratilmaganligi, bu talabalarning zamonaviy ta'lim paradigmasining asosiy qoidalarini bilmasligini ko'rsatadi, shu bilan birga, respondentlar “kasbiy harakatchanlik” tushunchasi bilan tanishish istagini bildirdiganligi va o'z kasbiy sohasini to'liq bilishi hamda o'zini doimiy ravishda rivojlantirishi kerakligini tushundi.

Ikkinchidan, professional harakatchanlikni rivojlantirish uchun aniq maqsadlarga ega bo'lish muhimdir. So'rov shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik talabalar o'rta rivojlanish darajasida, ya'ni ular o'z kareralarida nimaga erishmoqchi ekanliklarini aniq bilishadi, shuning uchun ma'lum bir maqsadga erishish, o'zgarishni o'z ichiga olgan holda kasbiy harakatchanlikni o'zlashtirish lozimligini angladi. So'rovda qatnashgan talabalarning ko'pchiligiga yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish istagini bildirgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, talabalar kasbiy kompetensiyani birinchi o'ringa qo'yadilar. Kasbiy kompetensiyalar, kasbiy harakatchanlikning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bo'lajak o'qituvchiga samarali kasbiy faoliyatni ta'minlaydi va kasbiy pedagogik ta'limning strategik maqsadini ifodalaydi.

Uchinchidan, professional pedagogik vazifalarni hal qilish jarayonida o'zining kasbiy pedagogik faoliyatini tahlil qila oladigan, nstandart kasbiy qarorlar qabul qila oladigan professional mobil bo'lish, o'quv jarayonining pedagogik vazifalarini zudlik bilan hal qilish qobiliyati kasbiy harakatchanlikni shakllantirishning zaruriy sharti ekanligini anglashdan iborat.

To'rtinchidan, so'rovda qatnashgan talabalar doimiy kasbiy o'sish zarurligini tushunishdi, bu esa keyingi kasbiy rivojlanish imkoniyatidan dalolat beradi. Talabalar so'rovnomalari tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'lim bo'yicha bakalavr darajasini olishdan maqsad yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, o'z shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, kasbiy kompetensiya va o'z-o'zini tarbiyalash darajasini aniqlash bilan bog'liqdir.

Bu shuni ko'rsatadiki, talabalar kasbiy harakatchanlikni shakllantirishda dastlabki so'rovnomalarga ko'ra, talabalar kasbiy harakatchanlik asoslarini bilmasdan, bu jarayonning takomillashishi qiyin bo'ladi. Natijada ushbu vaziyatdan chiqish yo'li talabalarning kasbiy harakatchanlik asoslarini rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish kerakligini anglatadi.

Muhokama. O'qituvchi pedagogik mahoratini aql-idroki, tafakkuri, kasbiy faoliyatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. O'qituvchi kasbiy faoliyatining har qanday turida ayni bir vaqtning o'zida uning ham aqliy, ham jismoniy mehnati obyektiv ravishda ishtirok etadi. Kasbiy faoliyat o'qituvchi hayotining negizi hisoblanadi. O'qituvchi miyasida har qanday fikr, hech qanday qarash va tushuncha o'z-o'zidan tug'ilmaydi hamda rivojlanmaydi. Balki ularning hammasi ma'lum darajada ijodiy fikrlar bilan bog'langan.

Inson yoki jamoaviy faoliyat shakli - avval mavjud bo'lmagan ammo sifat jihatidan yangisini yaratish, rag'batlantirish yo'li hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvshilarida kasbiy mobillikni shakllantirishda ta'limning ishki-muhiti ya'ni o'zaro a'loqa shengaralarini tashkil etuvshi tahliliy qiymatlar soxasi alohida o'rin tutadi. Mavjud tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalari bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvshilarining kasbiy mobilligini shakllantirishdan maqsad mustaqil-tanqidiy fikrlovshi, o'z ustida ishlash qobiliyatiga ega, motivatsion-kognitiv tafakkur tarzi ham bo'lajak o'qituvshining alohida harakatchanligini aniqlashtirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, bo'lajak o'qituvshilarning kasbiy mobilligini shakllantirishda - shaxsiy-kasbiy qobiliyati, mustaqil o'z ustida ishlashi va shaxsiy rivojlanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida u yoki bu o'quv faoliyati natijasida, bo'lajak

o'qituvshining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari hamda kasbiy yo'nalganlikka o'qitishda mustaqil yo'naltirish masalalari tahlil etish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, o'rganilgan ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil o'zlashtirish orqali bo'lajak o'qituvshi o'z faoliyat sohasida shaxsining mustaqil fikrlashi bilan bog'liq holda kasbiy mobilligini shakllantirish muammolari, xususan, kompetentli yondashish nuqtai nazaridan etarli darajada o'rganilmaganligini keltirib o'tishni ham joiz deb topdik.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy mobilligini shakllantirish oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish, mustaqil bilim olish, izlanish, har bir fanni ongli ravishda mukammal o'rganish usullari va yo'llarini bilib olish, o'z bilimini rivojlantirish xususiyatlarini takomillashtirish bilan bog'liq.

Kasbiy mobillikni o'zlashtirish talabalarning yuksak madaniyatini shakllantirish, ta'limning vosita va metodlarini egallash, o'z vaqtini oqilona sarflash va rejalashtirish, muvaffaqiyatli bilim olishi, kasbiy shakllanishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash hamda o'zlashtirishda katta yordam beradi. Kasbiy mobillik talabalarda uyushqoqlik, intizom, tashabbuskorlik, iroda, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini o'stiradi, mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi, o'z mustaqil ish uslubini hosil qilishga imkon beradi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy mobilligini shakllantirish ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda har bir talaba o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash va mushohada qilish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, shu soha bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, mavzuga oid turli qarashlar, yondashuvlarni taxlil qila olish, mavzuda bildirilayotgan masalalar haqida o'z munosabatini dadil va malakali ifodalay olish, mavzuga doir referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyalarini yozish tajribalarini o'zlashtirib olish kabilarni to'g'ri tashkil etishi, bo'sh vaqtini unumli sarflashga xizmat qilish, tegishli fanga oid ilmiy va maxsus adabiyotlar hamda boshqa manbalar bilan ijodiy ishlash faoliyatlarini takomillashtirish bilan tanishish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Uorner L. Социальный класс и социальная структура. URL: <http://ecsocman.hse.ru/data/249/895/1231/005uorner.pdf> (дата обращения 12.09.2021).
2. Qo'ysinov, O. (2019). Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped.fan.dok. diss.
3. Савенков, А. (2006). Психологические основы исследовательского подхода к обучению. Ос – 89
4. Pardabaev J.E. (2020). O'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda maktabdan tashqari, umumiy o'rta va professional ta'lim uzviyligi. Kasb hunar ta'limi jurnali 2023 yil 6-son. 203-209 betlar.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy - metodik asoslari.: Ped.fan.dokt. ... diss. - T.: 2007. - 45 b.
6. G'oziyev E.G'., Mamedov K.Q.. Kasb psixologiyasi. Toshkent: TDAU, 2003 y. 154 b.
7. Winter, D. G., Stewart, A. J., & McClelland, D. C. (1977). Husband's motives and wife's career level. Journal of Personality and Social Psychology, 35(3), 159–166. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.35.3.159>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son. https://lex.uz/law_collection
9. Биктуганов, Ю. И. Культура здоровья – путь к профессиональной мобильности учителя [Текст] // Физическая культура в личностно-профессиональном развитии студента и его образе жизни: науч. тр. междуна. научно-практ. конф. – М. : МПГУ, 2013. – С. 39–42 (0,3 п. л.)